

## REPRODUKTIV SALOMATLIKNI TIBBIY IJTIMOY MUAMMOLARI

Temirova Dilbahor Umaralievna

Ijtimoiy gigiyena va SSB kafedrasи, ADTI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada reproduktiv salomatlik, shuningdek tibbiy madaniyat jamiyat kelajagining mustahkam poydevorini yuksaltirish, tibbiyat ilm-faniga ham moddiy, ham ma'naviy e'tiborni kuchaytirish masalalari yoritilgan.

### Kalit so'zlar

Tibbiy madaniyat, tibbiyat ilm-fan rivojlanishi, keljakning mustahkam poydevori, axborot texnologiyalari.

### KIRISH

Bugungi kunda insonlar salomatligini saqlash borasida faol, foydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Tibbiyat ilm-faniga ham moddiy, ham ma'naviy e'tiborni kuchaytirish, fundamental va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy etish orqali jamiyatda tibbiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi. Natijada bu zamonaviy milliy tibbiyat ravnaqining ta'minlanishiga ijobjiy ta'sir etadi. Ma'lumki, tibbiy madaniyat jamiyat kelajagining mustahkam poydevoridir. Bu borada avvalo, yoshlarning tibbiy madaniyatga ega bo'lish zaruriyatini anglashi va unga qat'iyat, o'ziga ishonch va mas'uliyat bilan yondashib, tibbiy bilimlarni o'zlashtirishga jiddiy e'tibor berishi, tibbiy faoliyatning nazariyasi va amaliyoti bilan chuqurroq tanishishi, bilimlarni hayot va amaliyot bilan bog'lay olishi zarur.

### ADABIYOTLAR SHARHI

"Tibbiyat sohasida taraqqiyotga erishish, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash bilan bog'liqdir. Bu borada ijtimoiy foydali faoliyatlarni amalga oshirish shu soha yukalishining imkoniyatini beradi. Ayniqsa, jadal islohotlar, ilm ma'rifat va innovatsion faoliyat jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir etadi".

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

«Reproduksiya» so'zi lotincha so'z bo'lib, re-tiklanish, takrorlanish, producio-yarataman ma'nosini anglatadi. Reproduksiya—biologiyadan organizmning o'ziga o'xshash organizmlarni yaratish, ko'payishi ma'nosini bildiradi. Reproduktiv salomatlik - bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog'liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo'qligi bo'libgina qolmay balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlardan holati hamdir. Aslida reproduktiv salomatlik masalasi ham xotin – qizlar, ham erkaklarning salomatligini o'z ichiga oladi.

Aholi salomatligini muhofaza qilish, xotin – qizlarning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish, ularning oila va jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan izchil islohotlarning mazmun mohiyati, shuningdek, hukumatimiz qarorlari, Davlat dasturlari va ularning bajarilishi yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida aholini va ayniqsa yosh oilalarni xabardor qilish:

- oilada tibbiy savodxonlikni va tibbiy madaniyatni oshirish orqali ona va bola salomatligini mustahkamlash, onalar va bolalar o'limini, tug'ma nogironlikni oldini olish;
- oilada sog'lom farzandlar tug'ilishi, ularning parvarishi, yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bo'yicha tegishli axborot va ma'rifiy ma'lumotlarni yosh oilalarga yetkazish, hamda tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirish.

Ayollarning faqatgina homiladorlik vaqtida salomatligini saqlabgina qolmay, balki qizlarni yoshlik davridan boshlab sog' – salomat o'sishlarini ta'minlash lozim. Sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish har bir oilaga katta ma'suliyat yuklaydi.

Bu masalani to'g'ri hal etish yoshlарimiz oldiga bir qator talablarni qo'yadi:

- har bir ayol homilador bo'lmasdan avval shifokorlarga ko'rinish, o'zining sog'ligi, tug'ish mumkin yoki yo'qligi, bola sog'lom bo'lishi yoki bo'lmasligi haqida maslahatlashib olgani ma'qul;
- bola tug'ilganidan keyin uning sog'lom bo'lib o'sishi haqida qayg'urish, ona sutining ahamiyatini keng targ'ib qilish zarur;
- turmush ko'rishga tayyorlanayotgan yigit va qizlarimiz sog'lom bo'lishlari, shaxsiy hayot gigiyenasi bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

Yoshlarning tibbiy madaniyatni oshirishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish zarur hisoblanadi.

1. Bu borada avvalo, yoshlarning tibbiy madaniyatga ega bo'lish zaruriyatini anglashi va unga qat'iyat, o'ziga ishonch va mas'uliyat bilan yondashib, tibbiy bilimlarni o'zlashtirishga jiddiy e'tibor berish, tibbiy faoliyatning nazariyasi va amaliyoti bilan chuqurroq tanishish, egallagan bilimlarini hayot va amaliyot bilan bog'lay olish hamda tibbiy malaka, tajriba, mahoratga ega bo'lish;
2. Tibbiy madaniyatga ega bo'lish uchun shaxsiy refleksiv qobiliyat ta'sirini kuchaytirish, mustaqil ijodiy fikrashga odatlanish;
3. Tibbiy madaniyani egallahda ichki dunyosi boy, yangilikni idrok etish va yangicha harakat qila olish, ijodiy yondashuvchi jamoani harakatga keltiruvchi, boshlovchi, yangicha fikrlar asosida taraqqiy ettiruvchi shaxs bo'lishga erishish;
4. Yoshlarning tibbiy madaniyatini oshirishga va ularning milliy tabobatdan xabardor bo'lishiga erishish;
5. Reproduktiv salomatlik va to'g'ri ovqatlanish mezonlariga rioya etish, sog'lom turmush tarzini o'zlashtirish.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa shuki, tinimsiz o'qib-o'rganish, har qanday faoliyatni innovatsion ijtimoiy foydali faoliyatga aylantirish orqali yangi marralarni egallab, cheksiz muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Buning uchun zamонавиъи bilimlarni o'zlashtirish, yuksak tibbiy madaniyatga ega bo'lish barchaning



ResearchGate



SEMANTIC SCHOLAR




IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

uzluksiz hayotiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Tibbiyot sohasida taraqqiyotga erishish, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash bilan bog'liqidir. Ayniqsa, jadal islohotlar, ilm ma'rifat va innovatsion faoliyatning samarali amalga oshirilishi tibbiyot taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 30.12.2020.
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YaNADA RIVOJLANTIRISH BO'YICH A HARAKATLAR STRATEGIYaSI TO'G'RISIDA Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
3. Y.N. Allayorov "Akusherlik" Toshkent, 2018.
4. M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova "Ginekologiya" Toshkent, 2017.
5. A.A.Qodirova,Yu.K.Jabborova."Akusherlik" Toshkent 2013.
6. V.I.Bodyajina "Akusherlik" Meditsina, 2014.



# WORDLY KNOWLEDGE